

Meva-sabzavotlarni quritish va muzlatib saqlovchi korxona faoliyati bilan tanishildi



Termiz tumani “Yangi hayot” mahallasidagi 6 gektar maydonda 2019 yildan buyon “Gold dried fruits export” MChJ tomonidan qishloq xo’jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, quritish va muzlatib saqlovchi, eksport qiluvchi korxona faoliyati yo’lga qo’yilgan.

Umumiy qiymati 25,2 mlrd so’m bo’lgan ushbu loyiha yillik 30 ming tonna mahsulotni qayta ishlash, saqlash va eksport qilish quvvatiga ega. Yildan yilga qishloq xo’jaligi mahsulotlariga bo’lgan talab ortib borishi natijasida korxonaga yetarli miqdorda xomashyo yetkazib berishda muammolar yuzaga kelmoqda.

Viloyat rahbari mazkur korxona imkoniyatlari, mavjud texnologiyalar bilan tanishib, xomashyo yetkazib berish uzluksizligini ta’minlash maqsadida Jarqo’rg’on tumanida sabzi, Qumqo’rg’on tumanida bulg’or qalampirining hosildor navlarini aholi tomorqalarida yetishtirish, korxona tomonidan shartnoma asosida sotib olinishini yo’lga qo’yish topshirig’i berildi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)